

LUQMON BO'RIXONNING "KUTILGAN KUN" HIKOYASIDA QAHRAMONNING RUHIY TASVIRI

Fazilat MUHAMMADIYEVA*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan faol adiblaridan biri Luqmon Bo'rixon qalamiga mansub "Kutilgan kun" hikoyasi tahlil qilingan. Yozuvchining aksariyat hikoyalari kabi "Kutilgan kun" hikoyasi ham qahramon ruhiy holatlari tasviriga boy. Ayni paytda qahramon ruhiy holatlari tasviri tashqi qiyofa haqidagi tasavvurlarni ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Biz ijodkorning o'ziga xos uslubiga ham diqqat qaratdik. Hikoya qahramoni Boyxonning ichki monologlari vositasida adib uning orzulari va oilaviy munosabatlardagi konfliktlarga munosabatini tasvirlaydi. Biz tahlilda muallif Boyxonning noxush va qayg'uli hayoti, oiladagi iqtisodiy va ruhiy inqiroz hamda ichki konfliktlarini ko'rsatishda luqmanona uslub kuzatdik. Muallif obrazlarning ichki olamini tasvirlab, davr, oila, ijtimoiy munosabatlarni qalamga oladi. Hikoyadagi o'rik daraxti ramziylikka ega. Bu ramz qahramonlarning tashqi va ichki olamidagi konfliktlarni ko'rsatadi. Muallif, shuningdek, hikoya vositasida oiladagi kelishmovchiliklar, ijtimoiy tengsizlik va ichki ziddiyatlarni Boyxonning ichki kechinmalari va uning tashqi olamga nisbatan konflikti vositasida ochib bergan. Yozuvchi hikoyada bir vaqtning o'zida ijtimoiy, psixologik va hissiy dramani yoritishga erishganligi maqolada qiyosiy o'rganildi.

Kalit so'zlar: O'zbek muallif, Luqmon Bo'rixon, hikoya qahramonlari, ruhiy tasvir.

Psychological Portrait of the Hero in Lukmon Burikhan's Story "Kutilgan Kun"

Abstract: This article analyzes the short story *Kutilgan kun* (The Expected Day) by Lukmon Burikhan, one of the prominent contemporary Uzbek prose writers. Like most of the author's stories, *Kutilgan kun* (The Expected Day) is rich in depictions of the protagonist's psychological state. At the same time, the portrayal of the protagonist's inner emotions plays a crucial role in expressing perceptions of external appearance. We also focused on the writer's unique style. Through the inner monologues of the main character, Boyxon, the author illustrates his dreams and his attitude toward conflicts in family relationships. In our analysis, we observed Lukmon Burikhan's masterful style in depicting Boyxon's unfortunate and sorrowful life, the economic and psychological crisis in the family, and his inner conflicts. By portraying the inner world of his characters, the author reflects on the era, family, and social relationships. The apricot tree in the story carries symbolic meaning, representing the conflicts between the characters' external and internal worlds. Additionally, the author highlights family disagreements, social inequality, and internal contradictions through Boyxon's personal struggles and his conflict with the outside world. The study comparatively examines how the writer successfully intertwines social, psychological, and emotional drama within the story.

Keywords: Uzbek author, Lukmon Burikhan, story characters, psychological depiction.

Kirish

O'zbek adabiyotida spirtli ichimliklarning inson va jamiyatga yetkazadigan zararlarini tasvirlovchi asarlar vaqti-vaqti bilan yozilgan. Ular orasida birinchi bo'lib xayolga kelgan; A. Qodiriy qahramoni Toshpo'lat tajang ota kasbi bo'zchilik kasod bo'lgach, ko'cha-ko'yda sarson-sargardon bo'lib qolgan ishsizlardan biriga aylangan. U tayinli ishi bo'lmagani holda, soliqlarni to'lashga majbur etilgan kambag'al fuqaroning vakili. Toshpo'lat kambag'allik ommaviy tus olgan, insonga e'tibor susaygan, ulamo jur'atsiz, mansabdorlar loqayd bo'lgan davr odami. Shunga qaramasdan, qo'rquv tuyg'usidan yiroq qahramonning chapani tabiati, shariat himoyachisi, shuningdek, ichkilikbozlik va hirsxonalarga makon bo'lgan Ovrupocha shahar axloqsizligiga nisbatan isyonkorona qiyofada namoyon bo'lishi kitobxonda xayrixohlik uyg'otadi.

Yirik cho'lponshunos olim, professor D. Quronov Cho'lponning "Oydin kechalarda" hikoyasini tahlilga tortar ekan, uning janr xususiyati, ya'ni adib ijodiy uslubiga xos voqea-hodisalarning plastik jonlantirilishi – "nuqtayi nazar poetikasi"ga alohida e'tibor qaratadi (Quronov, 2004: 38). Bizningcha, hikoyaning adib ijodiy konsepsiyasi bilan bog'liq jihatlari, muammoning etik va estetik qimmatini kuzatish ham foydadan xoli emas.

* Tayanch Doktorant, Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti, fazilatmurodzoda8@gmail.com

Ma'lumki, "Oydin kechalarda" hikoyasida bir yarim oy davomida tunlarni tongga ulab, sabr-bardosh bilan erini kutgan, insonlik qadri toptalgan kelin xo'rsiniqlari yig'iga aylanadi. Qaynonaning "– Otasi ham shundoq, qizim..." (Cho'lpon, 1993: 285), degan alamnok iqrordan so'ng, ya'ni hasratlashish tufayli oshkor bo'lgan baxtsizlik tufayli ikki dil – gulday yoshligi sarg'ayib-so'lgan kampir va endi shu taqdirni kechinishga mahkum gulday kelinning uyqash taqdiri o'zaro birlashadi. Shu bois oldingi qahrli "adab berish"lar zumda mehr-marhamatga evriladi:

"Kelinning qizarg'on, charchag'on, og'ir qayg'ig'a tilmoch bo'lub turg'on ko'zlariga tikilib qarab turg'ondan so'ng onalar muhabbati bilan ko'zidan o'pdi:

– Endi sen menim o'z qizim bo'lding, endi senga sira ozor bermayman. Endi sen ham kunduzgi ishlarni esingdan chiqarib yubor! – dedi.

Kelin ko'zlarida bir oydinlik, bir sevinch ko'lankalari o'ynag'oni holda, boshini ko'tardi, ikki qo'lini kampirning yelkasiga tashlab turub:

– Onajon, men unga xafa bo'lmayman. Menim yosh umrim, guldek yoshligim kechalari sarg'ayib o'tmasa edi! – dedi" (Cho'lpon, 1993: 285).

Ko'rinadiki, yozuvchi hatto ko'lamdor fojia tasvirida ham kitobxon qalbiga oydin bir nur olib kirishga muvaffaq bo'ladi. Agar "– Otasi ham shundoq.." ta'kidi nazarda tutilsa, Cho'lpon otalar va bolalar muammosi, ya'ni farzand tarbiyasida ibrat bo'lish naqadar muhim ahamiyat kasb etishiga urg'u bergani, hikoyada ma'rifiy xulosaga kelgani ayon bo'ladi.

Luqmon Bo'rixon – zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli yozuvchilaridan biri. Uning asarlari inson ruhiyati va ijtimoiy hayotni chuqur tasvirlash bilan ajralib turadi. U ko'plab hikoya va qissalar muallifi bo'lib, o'ziga xos uslubi bilan o'quvchilar e'tiborini qozongan. Uning ijodida hayot haqiqatlari va insoniy qadriyatlar asosiy o'rinni egallaydi.

Bo'rixonning aksariyat hikoyalarida ko'pchilik (jamo)ning alohida odam (indiv)ga munosabati masalasiga alohida urg'u berilgan. Bu jihatdan "Kutilgan kun" hikoyasi, ayniqsa, xarakterlidir. Asarda qahramonning ichki kechinmalari, orzu va umidlari realistlik tasvirlangan. Muallif insoniy munosabatlar, kutilmagan voqealar va taqdir sinovlarini mahorat bilan yoritadi. Hikoya o'quvchini chuqur o'yg'a toldiradigan hayotiy haqiqatlar bilan boyitilgan. Hikoyaga R. Parfining "Bir yorug'lik izlayman hamon" jumlasiga epigrafi qilib olingan. Yozuvchi shu epigrafi orqali o'zining asl maqsadiga ishora qilgan. Bu ishora esa kitobxon e'tiborini o'zi diqqat qaratishi lozim bo'lgan asosiy jihat – bir qatim nur izlayotgan muallif fikr-tuyg'ulari, u tomonidan ilgari surilayotgan va butun hikoya matnidagi sizib o'tadigan asosiy g'oyaviy-emotsional ruh – leytmotivga yo'naltiradi.

Shubhasiz, yozuvchining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi adabiy qahramon (kengroq ma'noda personajlar tizimi) orqali namoyon bo'ladi. Zotan, syujet voqealari turlicha darajalangan qahramonlar orqali ifodalanib, bosh qahramon atrofida uyushtiriladi. Ya'ni boshqa barcha personajlar aynan bosh qahramonga hokim-tobelik (integrativ aloqadorlik) negizida hikoya voqeligiga kirib keladi.

Albatta, har bir personaj bosh qahramonni to'ldirish va izohlashga yo'naltirilgan yordamchi funktsiya bajaradi. Qahramonlar muallifning voqea-hodisa va tasvir predmetiga e'tiqodiy, g'oyaviy-badiiy, ijtimoiy-estetik, axloqiy-maishiy munosabatiga ko'ra tasniflanadi. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning burilish nuqtalarida bunday aksiologik munosabat ancha faollashib, qahramonlar ijobiy, salbiy, aksilqahramon tarzida baholanadi. Shubhasiz, gap bu o'rinda muallif munosabati avvaldan shakllangan turg'un (statik) qoliplarga asoslanishi, kitobxon muayyan qahramon yoxud roviy nigohi orqali ko'rilgan "haqiqat"ga ergashishi emas, balki o'qish va uqish jarayonida ijodiylikni talab etadigan estetik hodisa xususida bormoqda. Binobarin, adabiy qahramon, birinchidan, estetik, ikkinchidan, etik kategoriyadir.

1. Boyxonning Ichkilikka Berilishi

"Kutilgan kun" hikoyasi qahramoni Boyxon ismli yigit ikki oy oldin ammasining

qiziga uylantirib qo'yilgan. Ha, aynan "uylantirib qo'yilgan". Chunki ikkala tomon – uylangach, yigitchaning esi kirib qolishidan umidvor edi. Hamma gap shundaki, Boyxon ilgari motor zavodida xizmat qilar, ammo ko'pincha ishga shirakayf kelar, biroq berilgan topshiriqlarni do'ndirib bajarar edi. Zamon aylanib, o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida ichkilikbozlikka qarshi kurash ijtimoiy harakati avj olib, u sevimli ishidan ajraladi. Mehnat jamoasiga namuna sifatida "kovushi to'g'rilab qo'yilgan" Boyxon mardikorlikni inobatga olmaganda, endilikda "qip-qizil" bekorchi edi. Albatta, shu jikkakkina yosh Boyxonni to'g'ri yo'lga solmagan jamoani ham beayb deb bo'lmaydi. Biroq "echki qasam" bu yigit necha marta so'z berib, uddasidan chiqolmagani ham bor gap.

Demak, amma, bir jihati, marhum akasining arvohi hurmati, ikkinchi tomondan, jigarlari yuzidan o'tolmay, "gulday" qizini jiyaniga uzatishga rozilik bergan. Onaizor va aka-opalar, bir jihati, qarindoshchilik rishtalarini yanada mustahkamlash, ikkinchidan, aniqrog'i ham shu bo'lsa kerak, mahalladoshlardan boshqa birovni Boyxonga qizini berishga ko'ndirish dushvorligini his qilgan holda, ammaning qiziga og'iz solishgan.

Bejiz yuqorida "gulday" sifatini qo'shtirnoqda bermadik. Zotan, hikoyada adib ham: "... sarg'ishdan kelgan, yuzlari cho'zinchoq, qoshlari siyrak, qo'ng'irtob ko'zlari o'ychan" tarzda chizgan qahramon, ya'ni kelinchak onasi maqtaganchalik gulday emasligiga ishora qiladi (Ziyouz.com 2013).

Ayni paytda yuqoridagi portret tasviri tashqi qiyofa haqidagina tasavvur uyg'otadi. Shu bois uni o'qib, kelinchakdan hafsalamiz pir bo'lmasligi kerak. Zotan uning o'zini tutishi ham muhim ahamiyatga ega portret tasviridir. Jumladan, yosh kelin erta-yu kech hovlida kuymalanib yuradi: supir-sidir, yuv-tara bilan band bo'lib, uyni saranjom-sarishta tutadi, qaynonasiga girdikapalak bo'ladi. Har uch-to'rt kunda mast holda g'o'ddayib keladigan eridan jirkanmay, hayiqmay, iflos kiyimlarini yechib, yuvintirib qo'yadi. Onasi kelgan kezlari uning kuyovidan nolib qilgan iddaolaridan uyaladi. Binobarin, oilada er va ayolning o'rni haqidagi an'anaviy mental tasavvurlar ruhida tarbiya topgan Sharq ayollariga xos qarashdagi e'tiqod va iymon kishisi ekani bu kelinning go'zal fazilatlar sohibasi ekanidan darak beradi. Faqat keyingi paytlarda ko'zlarida paydo bo'lgan o'ychanlik, ya'ni psixologik portret (Kojevnikovoy va boshqalar, 1987: 289) uning ruhiy dunyosida kechayotgan po'rtanalarga ishora qiladi.

Ma'lumki, Abdulla Qodiriy "Toshpo'lat tajang nima deydi?" nomli hikoyasida Nikolay podsho davrida o'lkada aroq-vino mahsulotlari savdosi yurishganligidan go'yo og'zidan bol tomib gapirib, muammoning asl ildizlarini ishoraviy mazmunga yashirgan, ya'ni Turkistonda "odamzodning yuvtasi to'qquz pul" bo'lgan – iqtisodiy nochorlik va yo'lsizlik tufayli milliy qadriyatlarga putur yeta boshlagan davrni kinoya, kesatiqlar bilan ifoda etgan edi. Cho'lpon esa "Oydin kechalarda" hikoyasidagi Qodirjon va umumlashtiruvchi tip Annaxon obrazlari orqali dolzarb ijtimoiy-maishiy muammolar – ichkilikbozlik va faxshga berilish illatining mahalliy xalq vakillari orasida ildiz otayotganini chuqur nadomat bilan badiiy ifodaga ko'chirgan edi.

Shubhasiz, yuqoridagi singari chog'ishtirishlar bizni asosiy mavzuni bir nafasga to'xtatib, lirik chekinish qilishga undaydi. Chunki A. Qodiriy va Cho'lpon tashvish bilan bong urishida muayyan asoslar bor edi. Xo'sh, "oradan o'tgan bir asrlik davrda vaziyat qanday o'zgardi? Zamondosh nosirlar ijodida XX asr tongotaridagi bezovta ruh, realistik nasrdagi hayotbaxsh an'ana epkinlari kuzatilayotgani tasodifiy holmi yoxud bu jarayonda muayyan qonuniyat mavjudmi?" qabilidagi savollarga tayinli javob topilsa, tahlil qilinayotgan hikoya mohiyatiga ham chuqurroq kirish imkoni yuzaga keladi.

Masalan, BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) 2010-yilda e'lon qilgan sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, asosiy aholisi musulmonlar bo'lgan Yaqin Sharq davlatlari va Turkiyada spirtli ichimliklar iste'mol qilish me'yori oshgan. "The Economist" jurnali turli manbalardan hisobotlar yig'ib, quyidagicha

xulosa qilgan: “Musulmon davlatlarida 2001–2011-yillar ichida spirtli ichimliklar iste’mol qilish 72 foizga ko‘paygan”.

Sog‘liqni saqlash xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, Angliyada mastlik natijasida yiliga 1 million 200 ming zo‘rlash hodisasi sodir bo‘ladi. Shifoxonaga tushgan har o‘n kishidan biri ichkilik tufayli aziyat chekadi. Dam olish kunlari, yarim kecha, tongga yaqin bu ko‘rsatkich yettitadan o‘ntagacha ko‘payadi. 1 million 300 ming maktab o‘quvchisi mayxo‘r otanalaridan zulm ko‘radi. Ichkilikbozlik tufayli ochilgan jinoiy ishlar soni yiliga 7 million 300 mingdan oshadi. Ta’kidlash o‘rinliki, hozirgi kunda G‘arbda ichkilikbozlikka qarshi boshlangan kurash deyarli boy berilgan. Jumladan, Buyuk Britaniyada ichkilikbozlik yiliga 22 ming kishining o‘limiga, 150 ming kishining xastalikdan yoki ko‘ngilsiz voqeadan shifoxonaga tushishiga sabab bo‘lmoqda.

2. Badiiy Reallik

Nihoyat, L.Bo‘rixonning “Kutilgan kun” hikoyasiga qaytsak. Yozuvchi asarni: “– Boyxon bu kunni ilhaq kutgan edi” jumlasini bilan boshlaydi. Ilk jumla mutolaasidan so‘ng beixtiyor: “Qahramon qaysi kunni, nima uchun katta umid va mushtoklik bilan kutgan edi? O‘sha kuni qanday voqea-hodisa sodir bo‘lishi kerak edi? Xo‘sh, u sodir bo‘ldimi? Bordi-yu, kutilgan narsa sodir bo‘lmagan bo‘lsa, bu hol qaysi sabablarga ko‘ra ro‘y bergan?” degan savollar paydo bo‘ladi. Kitobxon roviy tomonidan o‘rtaga tashlangan tugunning javobini topishni, bilishni istaydi.

Adib Boyxonning kayfiyat-holini yurakni uvishtiruvchi manzaralar fonida taqdim etadi. U taram-taram bo‘lib ketgan daraxtga behol suyanib, chuqur-chuqur nafas oladi. Borliq sekin-asta kulrang qorong‘ilik qa‘riga singib boradi va betinim chayqaladi. Oyoq ostida betartib sochilib yotgan narsalar bu makonda sal oldin sodir bo‘lgan voqelik haqida tasavvur uyg‘otadi. Ha, u odatdagiday yana mast holda edi.

Kitobxon qahramon afsus-nadomatli yurak urishi ritmi (“chuqur-chuqur nafas oladi”)ni tinglaydi. Boyxon suyangan qadimiy daraxt tanasidagi taram-taram izlar, kulrang qorong‘ilik, chayqalayotgan dunyo tasvirlariga yashiringan ishoraviy mazmunni chuqurroq anglash, bilish istagi ortadi. Chunki Boyxonni qurshab olgan muhit – yuz berayotgan badiiy reallik munosabat bildirish istagini uyg‘otadi. Shu bois har bir kitobxon o‘z kompetentligi, qobiliyati, hayotiy tajribasi, hissiy idrok va tasavvuriga tayanib, vaziyatni analiz qila boshlaydi. Uning ichki dunyosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi orqali asl mohiyatni mushohada qilish, umumlashtirish va mantiqiy bog‘lanishlarni izlash, harakat-holatlarining motivlarini idrok qilish – identifikatsiyalash jarayoni ishga tushadi.

“– Endi hech o‘ngarilmasligim tayin, oxirgi umidim ham kul bo‘ldi, tamom”, – degan xulosaga kelish Boyxon va unga qo‘shilib kitobxon ko‘nglida ham g‘ashlik paydo qiladi. Garchi qahramon afsuslari biror foyda berishiga unchalik ishonilmasa ham, nadomatning simptomlari hali to‘la ochilmagani bois hikoyaning davomini o‘qish ishtiyoqi kuchayadi.

Xullas, adib bizni syujet voqealarini idrok qilishga tayyorlash asnosida ruhiyatimizda muayyan emotsional-hissiy kayfiyat hosil qilishga ham erishadi. So‘ngra asar voqeligi – qahramon tushgan ayni holatdan oldingi tarix bilan tanishtiradi. Ya‘ni Boyxon bir yumalab boshqa odamga aylanib qolmaganini dalillashga o‘tadi. Boshqacharoq aytganda, odatdagiday vujudga kelgan oqibat sababini izlash emas, balki sal boshqacharoq yo‘sinda, zamonaviy nasrga xos ifoda tarziga amal qilib, oqibatdan uning sababiga qarab boradi. Sababini narsaning o‘zidan izlaydi. Binobarin, determinist sifatida qoladi. Shuning uchun tasodif va istisnolarni inkor qiladi. Binobarin, hikoyada voqea azal kotibi irodasi bilan sodir bo‘ldi, degan mazmundagi teologik qarash kuzatilmaydi.

Demak, L. Bo‘rixon ijodiy niyati, etik va estetik konsepsiyasiga ko‘ra, Boyxon psixopatologik jihatdan shunday holga tushishi muqarrar. Shu o‘rinda hikoyadagi badiiy tahlil sifat jihatidan o‘zgarib, poetik tadqiq maqomini oladi: “U bir quchoq sovg‘a keltirib, xotinini

tugʻilgan kuni bilan qutlamoqchi, uning lablarida shirin bir tabassum koʻrmoqchi, soʻngra esa oʻzi orzu qilgan oʻsha oʻrik gullari iforiga burkanib, hamma-hammasini – oʻz hayotini, turmushini qaytadan boshlamoqchi edi” (Ziyouz.com 2013).

Mana, nihoyat, romantik orzularga vobasta maqsad-muddao oydinlashdi. Boyxon atrofdagilarni bezdirgan rang-tussiz olamdan koʻra mukammalroq dunyo yaratishga intiladi. Voqelik bilan oʻz ideali orasida nomutanosiblik borligini chuqur his qilmagani bois oʻz orzularini amalga oshira bilishiga ishonadi. Albatta, Boyxon ildizi bilan yoʻqotmoqchi boʻlgan nuqsonning asl sababi oʻzida ekanini ham yaxshi biladi. Ayniqsa, oʻnglanishga niyatlangan kezlarda uning ichki olamiga xos asrorlar kengroq ochiladi. L. Boʻrixon kundalik hayotda maishat quliga aylanib borayotgan odamning qalbi va ongidagi ichki ziddiyatlar, izohlash qiyin boʻlgan kayfiyat-holatlarni tasvirga koʻchiradi.

3. Orombaxsh TuygʻUlar Alangasi

Darhaqiqat, Boyxon dabdurustdan oʻnglanishga qaror qilmaydi. Bu jarayon iztirobli oʻylar girdobida qolish, oʻz-oʻzini taftish qilish orqali kechadi. Jumladan, keksa onasi beozor noliqlaridan Boyxonning boshi ham, qaynonasi taʼna-tanbehlari toshboʻronidan koʻngli ezgʻin, ayniqsa, yosh kelinning ovozsiz iltijoli nigohlaridan qalbi pajmurda edi. Shuning uchun sahar mardonda mardikorlikka otlanar, allakimlarga yollanib, ishlab topgan besh-oʻn soʻm pulini kechqurun uyaliygina xotini oldiga qoʻyar, mast boʻlgan kunlari esa ayolidan yanada koʻproq iymnardi. Chunki gʻoyat mehribon, musichaday beozor, mushfiq va itoatkor kelinga oʻzini nomunosib sanar: “Baribir meni tashlab ketadi”, – deb oʻylardi (Ziyouz.com 2013). Biroq xotining ketib qolish niyati yoʻqqa oʻxshardi. Odatda, Boyxon kechki yemakdan soʻng muzday deraza oynasidan mahzun qorongʻilikka choʻmgan torgina hovlidagi sovuq urgan oʻrik daraxtiga soʻzsiz tikilib, shunday xayollar girdobiga gʻarq boʻlardi.

Shu oʻrinda yozuvchi voqealar rivojini peyzaj tasviriga uygʻun tarzda chizib, uni badiiy voqelikning muhim unsuriga aylantiradi: “Necha-necha bahorlardan beri gullamaydigan, gʻuj-gʻuj yaproqlari kuzning olovli dami yetmasdanoq sargʻayib, qovjirab bitadigan bu daraxt sertomir qadoq qoʻllardek shoxlarini koʻkka choʻzib, nelarnidir falakdan soʻrayotganday sovuq shamolda diydirab, chayqalib turardi” (Ziyouz.com 2013).

Yuqoridagi tasvir, birinchidan, ayni damda voqea kechayotgan makon va zamon haqida tasavvur beradi. Ikkinchidan, oilaning iqtisodiy ahvoliga ishora qiladi. Uchinchidan, undagi ranglar Boyxonning kayfiyat-ruhiyati: azaliy oilaviy anʼanalardan uzilib, tashqi taʼsirlar girdobiga tushib, moʻrtlashgan maʼnaviyatiga kontrastli fon vazifasini bajaradi. Toʻrtinchidan, syujet voqealarini ramzli yoʻsinda asoslaydi. Beshinchidan, syujetning qanday yoʻnalishda rivojlanishiga turtki beradi.

Er-xotin bir-biriga termilib, bekorchil oʻtirishdan oʻzlarini olib qochishar, Boyxon unga tik qarashga botina olmas, kelin esa gap topolmay qiynalishdan choʻchib, roʻzgʻor gʻimir-gʻimirlaridan tinmasdi. Toʻgʻri, baʼzan Boyxon oʻz-oʻzidan zavqi joʻshar, kelinchakni erkalatgisi, mehribonliklar koʻrsatgisi kelar, lekin bunga jurʼat etolmas, toʻgʻrirogʻi, bu xil yaqinlikka oʻzini mutlaqo haqsiz deb hisoblardi. Chunki yurish-turishi, haminqadar topish-tutishi bilan xotini oldida oʻzini muttahamday his etardi.

Ammo qaytarilmas vaqt faqat kelajakka qarab intilarkan, holatlar almashinib, hayot davom etadi. Hissiy mushohadalar nisbatan yangilanadi. Shu maʼnoda kunlar bir-birini quvib oʻtgan sari Boyxon va kelinchak koʻngillarida ham orombaxsh tuygʻular alanganib borardi. Jumladan, Boyxon mardikorlikdan qaytarkan, ixtiyorsiz tarzda qadamlari tezlashar, nigohlar toʻqnashinuvini xayolan koʻz oʻngiga keltirarkan, bu shirin hissiyotdan koʻnglida ajib bir orziqish va entikish paydo boʻlishini his etardi. Garchi yumshoq oʻringa soʻzsiz va jurʼatsiz choʻzilsa ham, tun oʻz qora chodirini zinhor koʻtarmasligi, jilla qursa, saharining kelish fursati uch-toʻrt barobar uzaymogʻini istardi. Bunday kezlarda kelinchak uni tashlab, albatta, onasinikiga ketib qolishi bilan bogʻliq ong ostida gʻimirlayotgan umidsiz hislar chekinar,

noshukurlik o'rnini ojizona bir umid va ilinj ishg'ol etardi. Kelinchak ham yolg'iz qolgan kezlarida chiroyli turmaklagan sochlarini durracha bilan tang'ib, ro'zg'or yumushlariga sho'ng'ir va bunday kezlarda o'zining shirin-shakar xayollari og'ushida zavqlanib, lab-lunjini yig'ishtirolmay qolardi.

Omadi yurishmay tushdan so'ng shalvirabgina uyga qaytgan Boyxon ana shu go'zal manzara, xush holatning shohidi bo'ladi:

“Boyxon bu xushmanzarani to'rt-besh daqiqa – to unga xotining ko'zi tushgunicha tomosha qilib turarkan, nogoh dimog'iga gup etib o'rik gullarining ifori urilgandek tuyuldi. Boshi aylanib ketdi.

Xotini u tomon ilkis nazar tashladi-yu, ikkovlari baravar iljaydilar. Bu ularning bir-biroviga birinchi samimiy tabassumi edi” (Ziyouz.com 2013).

Ajabki, ko'z va lablarning shu so'zsiz, ovozsiz jestikulyatsiyasi – teran ma'noli harakat-holati, nigohlar va yuzdagi bilinar-bilinmas kulgichlar ifoda etgan ishoralar, yanada aniqroq aytganda, yosh kelinning ular ortida yashirin oliyjanob qalbi Boyxon tuyg'ularini ham muvozanatdan chiqaradi. Hikoya qahramoni bu mayin kulgichlar oldida taslim bo'ladi. Kechki ovqatdan so'ng odatdagiday derazaning sovuq oynalari bilan yuzma-yuz bo'larkan o'z-o'ziga:

“– Yo'q, bunday yashab bo'lmaydi. Odamsifat bo'lishim kerak, odam ...” deya qayta-qayta uqtiradi (Ziyouz.com 2013).

Shu nurli hislar roppa-rosa uch kun Boyxonni sevinch ummoniga g'arq qiladi. Uch kun davomida xotining tug'ilgan kuniga antiqa sovg'a qilib, yuzidagi go'zal tabassumni qayta ko'rish, uni baxtiyor qilishga talpinib, entikib, hayajonlanib, hatto o'sha arzanda kunni besabrlik bilan kutib yashaydi. O'zicha tortiq qilinajak sovg'a – sirtiga sarg'ish bo'yoq bilan bir juft qush surati muhrlangan bejirim va yaltiroq ko'zachani ham mo'ljallab qo'yadi. Har kuni mo'jaz do'konga kelib, ko'zaga suqlanib-suqlanib termiladi:

“Uning nazarida qushlar qop-qora tun aro horg'in uchi borishar, mitti ko'zlarida shubha-yu hadik, umidsizlik va alamzadalik qalqib turar, chor-atrofdan hech bir qo'nalg'a belgisi ko'rinmas edi” (Ziyouz.com 2013).

Nazarimizda, majoz botinidagi ma'nolar: bir juft qush – er xotin; qop-qora tun – mavjud vaziyat (keng ma'noda jamiyat); horg'in parvoz – nochorlik; qo'nalg'a belgisi yo'qligi – najot umidi ko'rinmasligi chindan-da, nainki o'z hayotlariga shubha-yu hadik, balki umidsizlik va alamzadalik bilan boqayotgan ikki dil turmushini tamsil qilishi kitobxon jismiga titroq olib kiradi, yuragini alg'ov-dalg'ov qilib yuboradi.

Biroq Boyxon umidsizlanmaydi. Uning bu kezdagi kayfiyat-holatini adib: “Beixtiyor qushlarning oyoqchalari tagiga oppoq gullagan o'rik shoxi tasvirini tushirgisi va qushlarni shu yerga qo'ndirib, chek-chegarasiz parvozni butkul tugatgisi kelib ketgandi”, tarzida jonlantiradi (Ziyouz.com 2013).

Kitobxon oldin ham Boyxonni o'rik gullarining iforidan sarmast holda uchratgan, uning gullagan o'riklar makonidan qushlarga qo'nalg'a topgan navbatdagi romantik xayollari bilan tanishar ekan, novdalarni bezagan shu g'unchalar qalbiga oq-oydin va nurafshon tuyg'ular indirganini ham his etadi. Afsuski, tashqarida uning go'zal xayollariga mutlaqo begona hayot daryosi o'zga bir marom bilan mavjlanar edi. Shu uch kun ichida Boyxon buni payqaydigan kayfiyatda emasdi. Shuning uchun ham u o'zi orziqib kutgan kunda shirin xayollari og'ushida charchoq nimaligini bilmay, g'ayrati jo'shib, yuz-ko'zidan tabassum arimay mehnat qildi. Xotining kechqurun quvonch va mehrdan lov-lov qizarishini xayolida jonlantira-jonlantira do'konchaga oshiqdi...

Ammo aroq magazini oldidagi ichki ikkilanishni bazo'r jilovlashga urinishlar shunchaki o'z-o'zini aldash, nogohon uchragan betayin og'aynilar esa jo'n bir bahona – yonay deb turgan olovga sepilgan lampamoy bo'ldi, xolos. Aslida, betayinlik ko'chasiga allaqachon kirib bo'lgan Boyxon o'ziga o'xshagan qadrdon oshnalarini keskin rad etishga

botina olmasdi. Irodasi sustlik bunga imkon bermasdi.

Adib er-xotinning yuqorida eslatilgan samimiy tabassumini bejizga “iljaydilar” demagan ekan. Shu soʻz botinidagi salbiy maʼno kitobxon qalbida kurtaklay boshlagan umid niholi gurkirab avj olishiga soya solib, ular ittifoqi omonat ekani, qandaydir noxushlik sodir boʻlishidan ogoh etib turardi. Zotan, oʻrikning necha-necha bahorlardan beri gullamasligi, yaproqlari kuzga yetmasdan sargʻayib qovjirab qolishi, sovuq shamolda diydirdab chayqalishi kabi majoziy, ishoraviy tasvirlar oʻquvchi qalbida hadik tugʻdirib ulgurgan edi. Shu bois garchi kelin ohorli kiyimlarni aynan shu daraxt shoxlariga ilgani bilan tanishsa-da, kitobxon koʻnglidagi gʻuborlar toʻla arimaydi. Chunki qarindoshlik rishtalari asosida paydo boʻlgan jamiyatning kichik yacheykasi hayoti hali na moddiy, na maʼnaviy-axloqiy, na ruhiy-psixologik jihatdan yetarlicha mustahkam emasdi. Nihoyat, oʻsha hadik vaqti kelib, chin maʼnoda nadomat tuygʻulari boʻlib qad rosladi. Bizningcha, bu hol irodasizlik orqasidan keluvchi shunchaki subutsizlik boʻlmay, uning quyidagi teran ildizlari ham mavjud edi:

Birinchidan, jamiyat madaniy taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlar toʻgʻri yoʻlga qoʻyilmagan. Masalan, ichkilikbozlikka qarshi ommaviy kurash xoʻjakoʻrsinga amalga oshirilib, mehnat jamoasi bir yosh xodimidan voz kechish bilan muammoga chek qoʻygan, oʻzini xotirjam sezgan edi. Qarovsiz qoldirilgan Boyxon oʻzining jamiyatga keraksiz ekanini anglagan, uy-roʻzgʻorga risoladagiday qarashishga imkonsizligini teran his qilgan sari yoʻlsizlik va mavhumlik sari ogʻib boraveradi;

Ikkinchidan, Sharq monogam oilalari uchun xos mental xususiyatga koʻra, keksa ona va yosh kelinchak dardini har qancha ichiga yutmasin, ular roʻzgʻorning but boʻlishini oilaning yagona erkagidan kutishga toʻla haqli edilar;

Uchinchidan, kelin uchun oila – Allohning inoyati. Shunday ekan, uning ayollik, musulmalik burchi – bu muqaddas qoʻrgʻon mustahkamligi uchun masʼul, qiyinchiliklarga sabrli, erga itoatli, ertadan umidli boʻlish. Uni iljayishga undagan omil ham xuddi ana shu ojizona umid edi. Demak, aslida, kelin ham bunday yashab boʻlmasligini ich-ichidan tuyar, biroq hali oshkora tan olgisi kelmas, oʻz yogʻiga oʻzi qovrilib yashardi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hikoyada Boyxonning ichki kurashlari va oʻzining ideal dunyo bilan voqelik oʻrtasidagi ziddiyatlar tasvirlanadi. Bu kurash faqat Boyxonga xos emas, balki insonning umumiy ruhiy holati, ichki konfliktlari va hayotdagi maqsadga erishish yoʻlida yuzaga keladigan qiyinchiliklar bilan bogʻliq. Boyxonning oʻzini anglash va oʻzgarishlarga intilish jarayoni insonning umumiy psixologik holatining ramzi sifatida adabiyotga muhrlandi. Hikoya oila va jamiyat bilan bogʻliq muammolarni hal qilishda yuzaga keladigan ichki ziddiyatlarni chuqur tahlil qiladi va oʻquvchiga har bir insonning ruhiy izlanishlari, umidsizlik va umid oʻrtasidagi kurashlarni koʻrsatadi. Shunday qilib, asar faqat Boyxonga xos boʻlgan voqealar bilan cheklanmay, balki insoniyatning umumiy ruhiyatidagi masalalarga ham toʻxtaladi yoki ishora qiladi.

ADABIYOTLAR

Choʻlpon (1993), *Asarlar*, Ikkinchi jild, Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti.

Kojevnikovoy, V.M., Nikolayeva, P.A. (red.) (1987), *Literaturniy ensiklopedicheskiy slovar*, Moskva: Sovetskaya ensiklopediya.

Quronov, Dilmurod (2004), *Choʻlpon nasri poetikasi*, Toshkent: Sharq.

Ziyouz.com (2013), “Luqmon Boʻrixon. Kutilgan Kun (Hikoya)”, Kirish sanasi: 29.03.2025, <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/luqmon-bo-rixon-1965/luqmon-bo-rixon-kutilgan-kun-hikoya>.

